

**O'QITUVCHI VA TALABALAR O'RTASIDAGI INTERAKSIYA: CHET TILI
O'QITUVCHILARI BILAN TALABALAR O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQALARNI
TAHLIL QILISH**

Eshonqulova Umida Xolmirzayevna

Qarshi shahar Turon Universiteti magistranti

Nemis tili yo'nalishi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17963015>

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet tili o'qituvchilari va talabalar o'rtasidagi pedagogik interaksiyaning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Maqolada pedagogik aloqaning zamonaviy nazariyalari, kommunikativ kompetentsiyaning shakllanishi, o'qituvchi-talaba munosabatlarining psixologik jihatlarini hamda chet tili ta'lim jarayonida yuzaga keladigan o'ziga xos interaktsiya shakllari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi sifatli pedagogik interaktsiya chet til o'rganish samaradorligini oshirish, talabalarning motivatsiyasini kuchaytirish va kommunikativ kompetentsiyalarni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: pedagogik interaktsiya, chet tili o'qitish, kommunikativ kompetentsiya, pedagogik aloqa, ta'lim jarayoni, lingvodidaktika.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретико-методологические основы педагогического взаимодействия преподавателей иностранного языка и студентов.

Анализируются современные теории педагогического общения, формирования коммуникативной компетентности, психологические аспекты отношений между преподавателем и студентами, а также специфические формы взаимодействия, возникающие в процессе обучения иностранным языкам. Результаты исследования показали, что качественное педагогическое взаимодействие преподавателей и студентов имеет решающее значение для повышения эффективности обучения иностранным языкам, повышения мотивации студентов и развития коммуникативной компетентности.

Ключевые слова: педагогическое взаимодействие, обучение иностранным языкам, коммуникативная компетентность, педагогическое общение, образовательный процесс, лингводидактика.

Abstract. This article studies the theoretical and methodological foundations of pedagogical interaction between foreign language teachers and students. The article analyzes modern theories of pedagogical communication, the formation of communicative competence, the psychological aspects of teacher-student relations, and the specific forms of interaction that arise in the process of foreign language education. The results of the study showed that high-quality pedagogical interaction between teachers and students is of decisive importance in increasing the effectiveness of foreign language learning, increasing students' motivation, and developing communicative competence.

Keywords: pedagogical interaction, foreign language teaching, communicative competence, pedagogical communication, educational process, linguodidactics.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar pedagogik jarayonning markaziy elementi sifatida qaraladi. Ayniqsa, chet tillarini o'qitish sohasida pedagogik interaksiyaning ahamiyati yanada ortadi, chunki til o'rganish jarayoni o'zida

kommunikativ faoliyatni, ijtimoiy-madaniy kompetentsiyalarni va shaxslararo muloqotni mujassamlashtiradi. O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi samarali o'zaro aloqa nafaqat bilim uzatish vositasi, balki talabalarning til kompetentsiyalarini rivojlantirishning asosiy mexanizmidir. Pedagogik interaksiya masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining kommunikativ uslubi, pedagogik munosabatning sifati va o'zaro aloqa strategiyalari bevosita ta'lim samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi [1]. Chet tili darsxonasida o'qituvchi nafaqat lingvistik ma'lumotlarni yetkazib beruvchi, balki madaniyatlararo muloqot jarayonini tashkil etuvchi, talabalarning motivatsiyasini shakllantiruvchi va til muhitini yaratuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik interaksiya nazariyasi XX asrning ikkinchi yarmida intensiv rivojlanib, L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev, V.A. Kan-Kalik, A.A. Leontev kabi olimlarning asarlarida chuqur tahlil qilingan. Chet tili o'qitish kontekstida bu munosabatlar yanada murakkab shaklga ega bo'ladi, chunki tilni o'rganish jarayoni nafaqat intellektual, balki psixologik, ijtimoiy va madaniy omillar bilan chambarchas bog'liqdir [2]. Hozirgi zamon ta'lim paradigmasida talabaga yo'naltirilgan yondashuv ustuvorlik qiladi, bu esa pedagogik interaksiyaning sifatiga yangicha talablar qo'yadi.

Chet tili o'qituvchisi darsxonada qulay psixologik muhit yaratishi, talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olishi, ularning autonomligini rivojlantirishi va til o'rganishga ijobiy motivatsiya shakllantirishga ko'maklashishi talab etiladi [3].

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotning metodologik asosini pedagogik interaksiya nazariyasi, kommunikativ tilshunoslik tamoyillari, gumanistik psixologiya konsepsiyalari va zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlar tashkil etadi. Pedagogik interaksiya nazariyasining asoschilari orasida L.S. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, u ta'lim jarayonida o'qituvchining vositachilik rolini ta'kidlaydi va "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasini joriy etadi [4]. Bu konsepsiya chet tili o'qitishda o'qituvchining talaba bilan o'zaro aloqasi orqali uning til kompetentsiyalarini rivojlantirishdagi rolini tushuntirishga yordam beradi. O'qituvchi talabaning hozirgi bilim darajasi va potensial imkoniyatlari o'rtasidagi bo'shliqni to'ldirish uchun maqsadli pedagogik qo'llab-quvvatlash ko'rsatadi. V.A. Kan-Kalikning pedagogik muloqot nazariyasi o'qituvchining kommunikativ uslublarini va ularning ta'lim samaradorligiga ta'sirini tahlil qiladi, u pedagogik jarayonda o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatlarning emotsional-psixologik komponentini ajratib ko'rsatadi [5]. Kan-Kalik pedagogik muloqotning turli uslublarini – hamkorlikka asoslangan, demokratik, avtoritar, bosim o'tkazuvchi – tasniflagan va eng samarali uslub sifatida hamkorlikka yo'naltirilgan muloqotni ko'rsatgan.

Chet tili o'qitish metodikasi sohasidagi tadqiqotlar pedagogik interaksiyaning kommunikativ kompetensiya shakllanishidagi rolini ta'kidlaydi. E.I. Passovning kommunikativ metodikasi konsepsiyasi chet tili darsxonasida haqiqiy muloqot sharoitlarini yaratishning zarurligini ko'rsatadi, bu esa o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi tabiiy, samimiy o'zaro aloqani talab qiladi [6]. Ushbu yondashuvda o'qituvchi nafaqat bilim manbai, balki muloqot jarayonining faol ishtirokchisi va talabalarning kommunikativ faoliyatini rag'batlantiruvchi shaxs sifatida qaraladi.

Passov ta'kidlashicha, chet tili darsxonasidagi pedagogik interaksiya o'z mohiyati jihatidan madaniyatlararo muloqotning modeliga aylanishi kerak, bu esa o'qituvchidan yuqori madaniy va kommunikativ kompetensiyani talab qiladi.

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda J. Harmer, D. Larsen-Freeman, J. Richards kabi olimlar chet tili o'qituvchisining rollarini tahlil qilgan – tashabbuskor, fasilitator, maslahatchi, resurs, kuzatuvchi – va har bir rol talabalar bilan turlicha interaktsiya shakllarini nazarda tutishini ko'rsatgan [7].

Pedagogik interaktsiyaning psixologik jihatlari ham katta ahamiyatga ega. C. Rogers gumanistik yondashuvda o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro hurmat, empatiya va samimiylilik ta'lim muvaffaqiyatining asosiy shartlari sifatida qaraladi [8]. Rogersning "talabaga yo'naltirilgan ta'lim" konsepsiyasi zamonaviy pedagogikada keng qo'llaniladi va o'qituvchidan talabalarning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va o'rganish uslublarini hisobga olgan holda pedagogik munosabatlarni qurishni talab qiladi. Chet tili o'qitish kontekstida bu yondashuv ayniqsa muhimdir, chunki til o'rganish intensiv emotsional mehnat talab qiladi va talabalarning til tashvishi (language anxiety) ko'pincha o'qituvchi bilan o'zaro munosabatlar xarakteriga bog'liq bo'ladi. H. Douglas Brown o'zining tadqiqotlarida til o'qituvchisining talabalar bilan muloqotida empatikning, ijobiy fikr-mulohazalarning va xatolarni konstruktiv tuzatishning ahamiyatini ta'kidlagan [9].

Zamonaviy tadqiqotlar o'qituvchining talabalar bilan o'zaro aloqasida fikr-mulohaza berish (feedback) strategiyalarining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Samimiy, konstruktiv va o'z vaqtida berilgan fikr-mulohaza talabalarning motivatsiyasini oshiradi, ularning o'z-o'zini baholash qobiliyatini rivojlantiradi va til o'rganishda ilgari ketishga yordam beradi. Pedagogik interaktsiyaning zamonaviy modellari o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi doimiy dialog, o'zaro fikr almashish va hamkorlikni nazarda tutadi. Chet tili o'qitishda muloqotga yo'naltirilgan topshiriqlar, jamoaviy ish shakllari va kooperativ ta'lim strategiyalari pedagogik interaktsiyani chuqurlashtiradi va talabalarning bir-birlari hamda o'qituvchi bilan samarali aloqasini ta'minlaydi [10]. Shuningdek, adabiyotlarda madaniy-lingvistik sezgirlik masalasi ham muhim o'rin tutadi – turli madaniy kelib chiqishiga ega talabalar bilan ishlashda o'qituvchi madaniyatlararo farqlarni, muloqot me'yorlarini va ta'lim kutilmalarini hisobga olishi zarur.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Adabiyotlar tahlili asosida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi pedagogik interaktsiya chet tili o'qitish jarayonida ko'p qirrali va murakkab hodisa bo'lib, u bir necha asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi: kommunikativ, didaktik, emotsional-psixologik va ijtimoiy-madaniy. Kommunikativ komponent til o'qitish jarayonida o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri lingvistik o'zaro ta'sirni ifodalaydi – og'zaki va yozma muloqot, so'rov-javob jarayonlari, diskussiyalar va interaktiv topshiriqlar. Tahlil shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining kommunikativ mahorati, uning til kompetentsiyalari va muloqot strategiyalari talabalarning til o'rganish motivatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi o'z nutqida til normalari va kommunikativ xulq-atvop me'yorlarini namoyon etish orqali talabalar uchun til modelini yaratadi. Didaktik komponent o'qitishning metod va usullari, o'quv materiallarining tashkili, topshiriqlar berish va baholash strategiyalari bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonlarda ham o'qituvchi-talaba interaktsiyasi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Emotsional-psixologik komponent pedagogik interaktsiyaning eng muhim tomonlaridan biri hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili shuni isbotlaydiki, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatlarning sifati, o'zaro ishonch darajasi, psixologik qo'llab-quvvatlash va emotsional muhit talabalarning til o'rganishga qiziqishi va o'z imkoniyatlariga ishonchiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi.

Ijoiy pedagogik interaksiya talabalarning til tashvishini kamaytiradi, ularning o'z-o'ziga ishonchini oshiradi va til bo'yicha eksperimentlar o'tkazishga, xatolarga yo'l qo'yishdan qo'rqmaslikga yordam beradi. Aksincha, salbiy yoki noaniq pedagogik munosabatlar talabalarning motivatsiyasini pasaytiradi va til o'rganish jarayonini sekinlashtiradi. Chet tili o'qituvchisi qo'llab-quvvatlovchi, rag'batlantiruvchi va konstruktiv muhit yaratishi, talabalarning individual farqlarini hurmat qilishi va har bir talabaning muvaffaqiyatiga ishonchini bildirishi muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining empatiya qobiliyati, talabalarning emotsional holatini sezish va ularning muammolariga sezgir munosabatda bo'lish til o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Ijtimoiy-madaniy komponent chet tili o'qitishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Til o'rganish jarayoni nafaqat lingvistik bilimlarni o'zlashtirish, balki madaniyatlararo kompetentsiyani shakllantirish jarayonidir. O'qituvchi talabalar bilan o'zaro aloqasida madaniy farqlar, qadriyatlar tizimlari, xulq-atvor me'yorlari va kommunikativ uslublar xilma-xilligini hisobga olishi kerak. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, madaniy jihatdan sezgir pedagogik interaksiya turli millatlar va madaniyatlardan kelgan talabalarning til o'rganishdagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi. O'qituvchi madaniyatlararo vositachi rolini o'ynab, talabalarni nafaqat til tuzilmasiga, balki til orqali ifodalangan madaniy kodlarga, ijtimoiy kontekstlarga va pragmatik normalariga kiritadi. Bu jarayonda o'qituvchining o'z madaniy identifikatsiyasi va madaniy pluralizm g'oyalari sodiqlik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik interaksiya talabalarning kritik fikrlashini, madaniy relativizmni tushunishini va turli madaniy kontekstlarda moslashuvchanlikni rivojlantirishga xizmat qilishi kerak.

Pedagogik interaksiyaning samaradorligi o'qituvchining professional kompetentsiyasiga, uning pedagogik mahoratiga, shaxsiy fazilatlariga va kommunikativ qobiliyatlariga bog'liq.

Adabiyotlar tahlili asosida samarali pedagogik interaksiyaning quyidagi tamoyillari ajratiladi: ikki tomonlama aloqa va dialoglik – o'qituvchi nafaqat gapiruvchi, balki faol tinglovchi bo'lishi, talabalarning fikr va takliflarini e'tiborga olishi zarur; shaxsiy yo'naltirilganlik – har bir talabaning individual xususiyatlari, o'rganish uslubi, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish; differensiyalashgan yondashuv – turli darajadagi talabalar bilan samarali ishlash va ularga mos qo'llab-quvvatlash ko'rsatish; ijobiy kuchaytiruv – talabalarning yutuqlarini tan olish, rag'batlantirish va konstruktiv fikr-mulohaza berish; qo'llab-quvvatlovchi muhit – darsxonada xavfsiz, qo'llab-quvvatlovchi va o'zaro hurmatga asoslangan atmosfera yaratish; hamkorlikka yo'naltirish – talabalar bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatish, ularni ta'lim jarayonining faol sub'ektlari sifatida qabul qilish. Bu tamoyillarning amalga oshirilishi o'qituvchidan yuqori darajadagi professional tayyorgarlik, pedagogik refleksiya qobiliyati va o'z faoliyatini doimiy takomillashtirish intilishini talab qiladi.

XULOSA

Chet tili o'qituvchilari va talabalar o'rtasidagi pedagogik interaksiya chet til o'qitish jarayonining asosiy elementi bo'lib, u talabalarning til kompetentsiyalarini rivojlantirishda, ularning motivatsiyasini shakllantirishda va akademik muvaffaqiyatga erishishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, samarali pedagogik interaksiya ko'p komponentli tizim bo'lib, u kommunikativ, didaktik, emotsional-psixologik va ijtimoiy-madaniy jihatlarni o'z ichiga oladi. O'qituvchining professional mahorati, kommunikativ kompetentsiyasi, empatiya qobiliyati va talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish ko'nikmasi pedagogik interaksiyaning sifatini belgilaydi.

Gumanistik, talabaga yo'naltirilgan va hamkorlikka asoslangan pedagogik interaktsiya modellari chet tili o'qitishda eng samarali natijalar beradi, chunki ular talabalarning faolligini oshiradi, ularning avtonomligini rivojlantiradi va til o'rganishga ijobiy munosabat shakllantirishga yordam beradi.

Pedagogik interaktsiyaning sifati talabalarning til tashvishini kamaytirishda, o'z-o'ziga ishonchini oshirishda va til bo'yicha eksperimentlar o'tkazishga moyillikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ijobiy pedagogik munosabatlar, o'qituvchining qo'llab-quvvatlashi, konstruktiv fikr-mulohazalar va madaniy jihatdan sezgir yondashuv talabalarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning zaruriy shartlaridir.

Zamonaviy ta'lim sharoitida, jumladan raqamli texnologiyalar kirib kelayotgan sharoitlarda, pedagogik interaktsiyaning sifatini saqlash va rivojlantirish maxsus e'tiborni talab qiladi. Chet tili o'qituvchilari o'z professional kompetentsiyalarini doimiy ravishda oshirishi, pedagogik refleksiya qobiliyatini rivojlantirishi, zamonaviy metodologik yondashuvlarni o'zlashtirishlari va talabalar bilan samarali o'zaro aloqani ta'minlashga doimiy e'tibor berishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – М.: Логос, 2005. – 384 с.
2. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика. – М.: Академия, 2006. – 336 с.
3. Nunan D. Learner-Centered English Language Education: The Selected Works of David Nunan. – London: Routledge, 2013. – 218 p.
4. Выготский Л.С. Педагогическая психология / Под ред. В.В. Давыдова. – М.: Педагогика-Пресс, 1996. – 536 с.
5. Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом общении. – М.: Просвещение, 1987. – 190 с.
6. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М.: Просвещение, 1991. – 223 с.
7. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – 5th edition. – Harlow: Pearson Education Limited, 2015. – 448 p.
8. Rogers C.R. Freedom to Learn for the 80's. – Columbus: Charles E. Merrill Publishing Company, 1983. – 312 p.
9. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – 6th edition. – White Plains: Pearson Education, 2014. – 410 p.
10. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – 3rd edition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 432 p.